



BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI

Saidmurotova Tursunoy

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat intituti

ORCID: 0009-0003-1679-2938

saidmuradovaturunay@gmail.com

Yusupova Orzugul

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat intituti

ORCID: 0009-0005-2753-9676

dreamflower8894@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Birlashgan millatlar tashkiloti Taraqqiyot dasturi ko'magida O'zbekiston iqlim byudjetini markirovkalash modelini ishlab chiqish va joriy qilish asoslangan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuv tarixi yoritilgan. "Yashil" byudjetlashtirish bo'yicha sohalar kesimida markirovka qilingan mablag'larning 2024-yil uchun prognozi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, yashil iqtisodiyot, moliyaviy mexanizmlar, markirovka qilingan mablag'lar, iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar.

РОЛЬ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Саидмуротова Турсуной

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Юсупова Орзул

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. Данная статья основана на разработке и внедрении модели маркировки климатического бюджета Узбекистана при поддержке Программы развития ООН. Освещена история экономического подхода к концепции устойчивого развития. Дан прогноз средств, предусмотренных на 2024 год по разделу отраслей «зеленого» бюджетирования.

Ключевые слова: программа развития ООН, концепция устойчивого развития, зеленая экономика, финансовые механизмы, целевые фонды, изменение климата, экологические проблемы.

THE ROLE OF THE GREEN ECONOMY IN ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Saidmurotova Tursunoy

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Yusupova Orzugul

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. This article is based on the development and implementation of a climate budget labeling model for Uzbekistan with the support of the United Nations Development Program. The history of the economic approach to the concept of sustainable development is covered. A forecast of funds provided for 2024 for the section of "green" budgeting sectors is given.

Keywords: UN development program, concept of sustainable development, green economy, financial mechanisms, trust funds, climate change, environmental problems.

Kirish.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD) o'zining "O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" loyihasi orqali O'zbekiston Hukumatiga milliy rivojlanish rejalari strategiyalari va barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish uchun Integratsiyalashgan milliy moliyalashtirish tuzilmaviy asosini yaratishda ko'mak bermoqda. BMTTD loyihasi rivojlanishni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan davlat va xususiy resurslarni safarbar qilishga yordam berishga qaratilgan bo'lib, u strategiyalar islohotlarning 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy o'lchovlariga ta'sirini maksimal darajada oshirishga yordam berish uchun talab qilinayotgan strategik tadqiqotlar va salohiyatni oshirishni ta'minlaydi. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ta'minlashda barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlari maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta'siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalar va yondoshuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va avlodlar o'rtasida tenglikni ta'minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari, 2010-yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi (Vaxobov va boshq., 2020).

Adabiyotlar sharhi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Lindal va Xiksler (Smirnov, 2015) asos solishgan.

Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi boshmuammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanibqolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o'zaro o'rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi. Natijada iqtisodiy barqarorlikning quyidagi ikki turi paydo bo'ldi:

-kuchsiz – vaqt bo'yicha kamaymaydigan tabiiy va jamg'arilgan kapital iqtisodiy barqarorlik;

-kuchli – tabiiy kapitalning kamaymasligiga (qayta tiklanmaydigan resurslarni sotishdan tushgan foydaning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo'naltirilishi zarurligiga) asoslangan iqtisodiy barqarorlik.

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi insonga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgandir.

“Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy fan sifatida XX-asr oxirlarida shakllangan bo‘lib, iqtisodiyotning tabiiy muhitga bog‘liqligi, uning tarkibiy qismi ekanligi va tabiiy muhit doirasida amal qilishini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi resurslarni tejashga yo‘naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fanlardagi ilmiy g‘oyalarni qamrab oladi. “Yashil iqtisodiyot” fan sifatida o‘z shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish XX asrning 60-70-yillarida ommalasha boshladi. Bu davrda iqtisodiy adabiyotda an‘anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan “atrof-muhit iqtisodiyoti”, deb nomlangan yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi. Ushbu yo‘nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta‘siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni eksternal, ya‘ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlandi. Unga muvofiq ekologik muammolarni amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirilishi zarur (Beder, 2011). Misol tariqasida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining xalqaro savdosini tashkil etish masalasini keltirish mumkin.

XX asrning 80-90-yillarida ekologik muammolarni tor doirada iqtisodiy yondashuvlar orqali hal etishning muqobil varianti sifatida ekologiya iqtisodiyoti (ecological economics) fani paydo bo‘ldi va jadal sur‘atlarda rivojlana boshladi. Atrof-muhit iqtisodiyotidan farqli ushbu yo‘nalish iqtisodiyot fanining maxsus bo‘limi sifatida emas, balki ilmiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida talqin etiladi (Spash, 2011).

Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “yashil iqtisodiyot” tushunchasi shakllana boshladi. Ushbu atama ilk bor 1989 yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi iqtisodchilar tomonidan “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish rejasi”, deb nomlangan hisobotda foydalanilgan (Axborotnoma, 2023).

Atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda “yashil iqtisodiyot” ko‘proq amaliy xarakterga ega hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” ilmiy fan sohasi emas, balki ustun darajada real iqtisodiy siyosat, konkret faoliyat sohalari (energetika, inovatsiya, qishloq xo‘jaligi va b.)ga taalluqlidir. Ushbu farqni “yashil iqtisodiyot”ning inglizcha economics (iqtisodiy nazariya yoki environmental economics, ecological economics kabi iqtisodiy fanlar) emas, balki economy (real iqtisodiy faoliyat) so‘zlari orqali ifodalanishida kuzatish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada, Iqtisodiy darajada “yashil iqtisodiyot”ni boshqarish jarayonlarining natijalariga baho berilgan. Xo‘jalik yuritish va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Iqtisodiy faoliyat tufayli uzoq istiqbolda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni minimallashtirish, ekologik va ijtimoiy omillarni qamrab oluvchi iqtisodiy tizimlarni boshqarish usullari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ko‘magida O‘zbekiston iqlim budjetini markirovkalash (IBM) modelini ishlab chiqish va joriy qilish jarayonidan o‘tmoqda. IBM rejalashtirilgan yoki ijro qilingan budjetning alohida moddalarini iqlim uchun dolzarbligiga qarab belgilashni va keyin natijalarni nashr qilishni o‘z ichiga oladi. IBMdan strategiya ishlab chiquvchilarni o‘zlarining budjetlashtirish qarorlarida iqlim o‘zgarishi masalalarini ko‘proq hisobga olishga undashi; iqlim o‘zgarishi bo‘yicha strategiyalarni amalga oshirishdagi o‘sishni kuzatishga yordam berishi; Hukumatning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq faoliyati bo‘yicha manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni yaxshilashi kutilmoqda. Vaqt o‘tishi

bilan bu afzalliklar mamlakatga iqlim sohasidagi moliyalashtirish uchun qo'shimcha resurslardan foydalanish va samarali dasturlash imkonini beradi.

O'zbekistonda 2022-yilda o'tkazilgan Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq davlat xarajatlari va institutsional tahlil (CPEIR) natijalariga mos keladi. 1-jadvalda CPEIR tahlili natijalari ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekiston Davlat budjetining qariyb 11 foizi iqlim o'zgarishi natijalarini qo'llab- quvvatlashga mo'ljallanganligini, ularning katta qismi iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tahlil natijasida Davlat budjetining 0,5foizidan kam bo'lgan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat natijalariga zarar yetkazuvchi ("salbiy" xarajatlar) xarajatlari ham aniqlangan.

2022-yildagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 10 foizidan ortig'i iqlim bilan bog'liq faoliyatning yakuniy natijalarini ijobiy qo'llab- quvvatlashga qaratilgan deb baholangan.(1-jadval)

1-jadval

2022-yil	Jami iqlim o'zgarishi bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar	Iqlim ta'sirini yumshatish bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar	Iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liq ijobiy xarajatlar	Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq salbiy xarajatlar (barchasi tasirini yumshatish bo'yicha)
Milliard so'm	26 302,4	612,7	25 414,8	1 006,0
Davlat byudjetida foizi ko'rinishida	11,1%	0,3%	10,7%	0,4%

Manba: iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish vaxalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi. Milliy axborotnoma.

Biroq, O'zbekiston Hukumati iqlim o'zgarishiga qo'shimcha ravishda bir qator boshqa ekologik (yoki yashil) masalalar barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning ajralmas qismi sifatida qaraydi. Iqlim o'zgarishi masalalarini hal etish asosiy vazifalardan bo'lib qolsa-da, davlat xarajatlari to'g'risidagi qarorlar bilan yumshatish yoki murakkablashtirish mumkin bo'lgan atrof-muhit bilan bog'liq bir qator o'ta ustuvor vazifalar ham mavjud. Masalan, ilmiy tadqiqot doirasida to'qqizta sayyora chegaralari aniqlangan: ular chuchuk suv holatining o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera aerzolining yuklanishi, okeanning kislotalanishi, yangi davr predmetlari (plastmassalar kabi), yer tizimining o'zgarishi, biosfera yaxlitligi va iqlim o'zgarishidan iborat.

O'zbekiston o'z budjeti iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan atrof-muhit muammolariga qanday ta'sir ko'rsatishini hisobga olish uchun IBM yondashuvini kengaytirishni rejalashtirmoqda. 2023-yilda iqlimni moliyalashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilishi natijasida natijada xalqaro tashkilotlar mablag'lari jalb qilinmoqda.

Misol uchun 2023-yil 17-may kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) Boshqaruvchilar kengashining "Muvofiqlikka sarmoya kiritish" mavzusidagi 32-yillik yig'ilishi doirasida Iqtisodiyot va moliyavazirligi, Yevropa ittifoqi va Fransiya taraqqiyot agentligi o'rtasida "O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot hamkorligi bo'yicha" **10,2 mln yevro** miqdorida texnik ko'mak mablag'lari ajratilishiga qaratilgan kelishuv imzolandi.

2-jadval

Asosiy yoʻnalishlar	Moliyalashtirishning taxminiy miqdori* (mlnAQSh doll.)
1-komponent: Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish	
1.1-subkomponent: UNFCCC talablari asosida monitoring, hisobotva tekshirish (MRV) tizimini ishlab chiqish	6,00
Issiqxona gazlari kadastri (rasmiy statistika maʼlumotlariga aslangan issiqxona gazlarining chiqarilishi va tutib qolinishini tavsiflovchi tizimlashtirilgan maʼlumotlar jamlanmasi)	
Issiqxona gazlari reyestri (issiqxona gazlarining chiqarilishi toʻgʻrisidahi sobotlarni oʻz ichiga olgan axborot tizimi)	
Uglerod birliklari reyestri (“yashil” loyihalar roʻyxatdan oʻtkaziladigan, uglerod birliklari va ular bilan bogʻliq operatsiyalar hisobi yuritiladigan axborot tizimi)	
Maʼlumot va axborot markazi	
1.2-subkomponent: “Yashil” oʻsish va uglerod savdosi boʻyicha quyidagi vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi	2,00
1.3-subkomponent: Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Loyihani amalga oshirish guruhini tashkilotish (issiqxona gazlari emissiyasi savdosi, loyihalarni koʻrib chiqish, MRV, iCRAFT loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring yuritish va boshqalar)	7,00
Milliy qonunchilik bazasini tayyorlash	
Loyihani amalga oshirish guruhi (markazi)ning nizomini tayyorlash	
UNFCCC talablari asosida loyihani koʻrib chiqishning milliy qoidalarini tayyorlash	
Xalqaro bozorlarda birinchi uglerod sotilishiga qadar moliyalashtirish (ish haqi, texnika)	
“Yashil energiya” sertifikatlari yagona elektron platformasini ishga tushirish	
2-komponent: Iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish	
2-komponent: Iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish	18,00
2.2-subkomponent: Energiya tariflari (subsidiya) islohotlari va unga taalluqli boʻlgan aloqa kompaniyalari	2,00
Samarali tarif siyosati, narxlarni shakllantirish va amalga oshirish	
Aloqa kompaniyalarini ishlab chiqish	5,00
2.3-subkomponent: Ijtimoiy zaif uy xoʻjaliklarini energiya tariflari islohotlaridan himoya qilish boʻyicha ijtimoiy yordam faoliyati (ijtimoiy xavfsizlik tarmogʻi tizimini, ijtimoiy roʻyxatlarni va boshqalarni kuchaytirish)	
2.4-subkomponent: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (uy-joylarga quyosh panellari, quyosh suv isitkichlarini oʻrnatish va boshqalar) hamda energiya samaradorligini oshirish choralari (issiqlik nasoslari, quyosh suv isitkich va sovitkich tizimi va boshqalar) ishlab chiqish va pilot loyihalarini amalga oshirish	5,00

Manba: iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi. Milliy axborotnoma.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 8-avgustdagi** Jahon banki ishtirokida "energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-271-son qarori bilan 2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishnita'minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash maqsadida "Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" (iCRAFT) loyihasini amalga oshirish uchun Jahon banki tomonidan O'zbekiston Respublikasiga **46,25 mln AQSh dollari** miqdorida mablag' ajratilishi ma'qullandi. Loyiha **20,0 mln AQSh dollari** miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega "Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish shartnomasi" komponenti hamda **25,0 mln AQSh dollari** miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega "Oqibatlarni yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi" komponentidan iborat. Ushbu loyiha doirasida ajratilgan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarga sarflanishi belgilangan edi.(2-jadval)

BMTning Taraqqiyot dasturi ko'magida amalga oshirilgan yana bir loyiha doirasida "O'zbekistonda budjetni "Yashil" markirovkalash (BYAM) metodologiyasiva yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Loyihaning asosiy tadbirlari:

- davlat budjetini shakllantirish jarayonining barqaror rivojlanish maqsadlarinisamarali tarzda amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashini ta'minlash;

- O'zbekistonda "Iqlim budjetini markirovkalash" modelini ishlab chiqish vajoriy etish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ilk bor **4,25 trln** so'm miqdoridagi "yashil" suveren xalqaro obligatsiyalar hamda **660 mln dollar** miqdoridagi xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi. "Yashil" obligatsiyalar bo'yicha kelib tushadigan mablag'lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, temir yo'l transporti va metro transportini rivojlantirish, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash, shamol eroziyasiga va suv xo'jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish kabi yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish monitoringining shaffofligini ta'minlash, investorlar va keng jamoatchilikka investitsiyalarning O'zbekistonning "yashil" va barqaror rivojlanish sohasidagi vazifalariga ta'siri to'g'risida barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- yashil iqtisodiyot konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishdagi bosh muammo yashil iqtisodiyot tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo'shimcha investitsiyalar yo'naltirish yoki yashil o'sish sifatida soddalashtirish hisoblanadi.

- yashil iqtisodiyotga o'tish zarurligini ilmiy asoslashning murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyani tushunarli, soddada tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Jumladan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo'yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda.

- yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi.

- barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi.

- yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda sodir bo'ladi.

Adabiyotlar/Лумепамыпа/References:

Axborotnoma (2023) Iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi. MILLIY AXBOROTNOMA. Toshkent 2023.

Beder, S. (2011), 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', *Environmental Conservation*, vol. 38, no. 2, pp. 140-150.

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477- son Qarori.

Smirnov, D. (2015). The concept of sustainable development as a methodological base to form strategy for enterprises of oil complex. *MIR [World] (Modernization Innovation Research)*, 6(4-2), pp.362–367. doi:<https://doi.org/10.18184/2079-4665.2015.6.4.362.367>.

SPASH (2011). *Social Ecological Economics: Understanding the Past to See the Future*. The American Journal of Economics and Sociology. Volume70, Issue2 April 2011. <https://doi.org/10.1111/j.1536-7150.2011.00777>

Бахабов А.В, Хажибакиев Ш.Х. ва бошқалар. яшил иқтисодиёт дарслик –Toshkent.: "Universitet", 2020. -262 б.